

Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni Lug'ot at-Turk" asrarida komil inson masalalari

Ruxshona Ozodbek-qizi Mutalibjonova

Ilmiy maslahatchi: M.Mirzakarimova

Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni Lug'ot at-Turk" asarida ilgari surilgan ta'lim-tarbiya masalalari tahlil qilinadi. Asarda ilmga intilish, ilm ahlini hurmat qilish va axloqiy fazilatlarni shakllantirish kabi g'oyalar yoritilgan. She'rlar, maqollar va hikmatli so'zlar orqali yoshlarni ma'naviy yetuklikka chorlovchi qarashlar ochib beriladi. Muallif asardagi pedagogik fikrlarning tarbiyaviy ahamiyatini asoslab beradi. Tadqiqot natijalari bugungi ta'lim-tarbiya jarayoni uchun ham dolzarb ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Mahmud Qoshg'ariy, "Devoni lug'ot at-turk", ta'lim-tarbiya, ma'naviy qadriyatlar, ilmga intilish, axloqiy tarbiya, yoshlar tarbiyasi, xalq pedagogikasi, komil inson, tarbiyaviy g'oyalar

Issues of the Perfect Man in Mahmud Kashgari's "Divoni Lugot at-Turk"

Rukhshona Ozodbek-kizi Mutalibjonova

Scientific advisor: M.Mirzakarimova

Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article analyzes the issues of education put forward in Mahmud Kashgari's "Divoni Lugot at-Turk". The work covers ideas such as the pursuit of knowledge, respect for scholars, and the formation of moral qualities. Through poems, proverbs, and wise sayings, views calling young people to spiritual maturity are revealed. The author substantiates the educational significance of the pedagogical ideas in the work. The results of the research show that they are also relevant for today's educational process.

Keywords: Mahmud Kashgari, "Divoni Lugat at-Turk", education, spiritual values, pursuit of knowledge, moral education, youth education, folk pedagogy, perfect person, educational ideas

Mahmud Qoshg'ariy Bolasog'un shahrida dunyoga keladi. Uning to'liq ismi Mahmud ibn Husayn ibn Muhammaddir. Ular Issiqko'l atrofida joylashgan. Huddi

shu yerda Barskon shahri bo'lgan. Uning bobosi ham o'sha yerdan bo'lgan. So'ng Buxoro, Samarqand, Marv, Nishopur, Bag'doddagi maktab va madrasalarda ilmini oshirgan. U turkiy til grammatikasini ishlab chiqqan, turkcha-arabcha lug'atning ilk namunasini yaratgan birinchi tilshunos olimdir¹.

"Devoni lug'ot at-turk" Mahmud Qoshg'ariy qoldirgan va turkiy xalqlar uchun bebaho merosdir. Muallifning: *"Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so'zlar, saj' (qofiyali nasr)lar, maqollar, rajaz (misralari nisbatan uzunroq bo'lgan she'r turi) va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim... Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo'llanib kelgan she'rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo'llanadigan hikmatli so'zlardan, maqollardan keltirdim"*[28], - deyishi bejiz emas.

"Devoni lug'ot at-turk" asari 1072-yilda yozila boshlagan. Ammo unga kirgan materiallar 15-20 yillar davomida to'plangan. Kitobga "Devoni lug'ot at-turk" ("Turkiy tillar lug'atlari") deb nom berilgan. U *"arab tili bilan ikki uloqchi ot singari teng poyga qilib, o'zib borayotgan turk tilini"* ko'klarga ko'taradi, uning o'ziga xos xususiyatlarini mahorat bilan ko'rsatib beradi². "Devon" she'rlarida ilm olishning qadri, bilimli va donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmondo'stlik, xushxulqlik, mardlik, jasurlikni targ'ib etuvchi o'z manfaatini ko'zlagan molparast, baxil, ochko'z, do'sti va xalqiga xiyonat kabi xislatlarni qoralaydigan she'rlar ko'p. Bunday she'rlar turkiy xalqlar qadim-qadimdan inson shaxsini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor berganidan darak beradi. Pand-nasihat janridagi asarlarning mazmunida asosiy o'rinni ilm olishga undash, uning foydalari, ilm ahlini hurmat etish to'g'risidagi fikrlar egallaydi. Yoshlarga ilmi kishilarga yaqinlashish, ulardan o'gitlar olish maslahat beriladi:

O'g'lim, senga qoldirdim o'git, Unga amal qil,
Olimlarga yaqinlash, bahra olgil, Tutib dil.

Bunda: o'g'liga nasihat qilgan ota bilimli kishilardan yaxshilik kelishiga ishonadi, ammo ularni eshitibgina qolmay, amalda unga rioya etishini uqtiradi. Bilimli bo'lish bilan birga, yomon xatti-harakatlardan saqlanish zarurligi, manmanlik, maqtanchoqlikning zararli oqibatlarini xususida nasihatlar bayon etishdan iboratdir. Barchamizga ma'lumki, bilimli, ma'rifatli bo'lishligi uchun kishi kibr-havodan uzoqroq bo'lishini ko'p allomalarimiz ta'kidlagan. "Devon"da ilm sari intilish qutlug' ezgu ish sanaladi, har bir kishi ilm o'rganish sari intilishi, o'zlashtirilgan bilimlariga amal qila olishi, kibr havodan voz kechishi zarurligi ta'kidlanadi.

Qush ov ko'rsa yuksaklardan pastga cho'kar,
Olim kishi o'git bersa darhol uqar.

¹ Adabiyot [Matn] 11-sinf: darslik-majmua/B. To'xliyev [va boshq.], – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 52 b.

² Adabiyot [Matn] 11-sinf: darslik-majmua/B. To'xliyev [va boshq.], – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 54 b.

Bunda: ilm ahlini boshqa insonlardan farqi ya'ni aqlli insonlargagina ilm tez yuqishi mumkinligi, qush tasviri misolida qiyoslanadi. Bilimli, yuksak fazilatlarga ega bo'lgan kishilar hayoti doimo mashaqqatli kechadi. Umrbo'yi ilm va hunar asoslarini o'zlashtirgan olim va fozillar hayoti ham bir kun poyoniga yetadi. Lekin fikr qilinsa, insonlarga yaxshilik qilgan, ularga foyda keltirgan insonlar barcha ezgu dinda ulug'lanadi.

Asarda insoniy fazilatlarning yana biri xushxulqlik ekanligi alohida ko'rsatib o'tiladi. Bilim va hunar egasi bo'lish, ezgulik, yaxshilik yo'lida hamda umum manfaati uchun mehnat qilish xushxulq insonlarga xos ekanligini qayd etadi.

Mol yig'ishni sel kelish deb hisobla,

Mol egasin tosh kabi yumalatar

Mol-dunyo to'plashga nisbatan yuzaga kelgan hirsni shoir xuddi tog'dan kelayotganm selga o'xshatadi. Molu davlat yig'ish hirsiga berilgan kishi sel ostida qolgan toshdek chil-parchin bo'ladi deydi. Shu bois aqlli inson bu xavfni oldini olishi ya'ni boylik bu sinov ekanligini tushunib yetib, atrofdagilarning nazaridan qolmasligi lozimligini uqtiradi. Yana bir nasihatida mol dunyosini yo'qotgan kishini tushkunlikka tushishi ham irodasizlik sanalishini, dunyo va undagi ne'matlar abadiy emasligini yoshlarga nasihat qiladi.

"Devoni lug'ot at-turk" asarida xalqning ta'lim tarbiyaga oid tajribalari ifodalangan maqollar mavjud. Shunday hikmatli maqollardan misollar keltirsak:

"Tirishqoqning labi yog'liq - erinchoqning boshi qonliq"

Ushbu maqol orqali muallif mehnatsevarlikni qadrlaydi. Mehnat qilgan kishi yaxshi taomlar yeyishi, hayotini go'zal o'tkazishini, yalqov odam esa kambag'allik bilan hayot kechirishini ta'kidlaydi.

"Odamning olasi ichida - yilqiniki tashida"

Bu maqolda ayrim kishilarning yomon niyatlari, o'y-fikrlari dilida boshqalarga nisbatan yuzaga kelgan yomon niyatlarni yashirib, ularga zo'rama-zo'raki kulib qarashlari, ularning xatti-harakatlarini maqtashi, go'yoki u insonning yutuqlaridan quvonganday qilib ko'rsatishini aytadi. Bu maqol orqali insonni qalbidagi niyatlarni boshqalar ko'ra olmasligini, hammaga ham ishonavermaslik kerakligini uqtiradi.

"Devoni lug'ot at-turk" asarida Mahmud Qoshg'ariyning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari ham ifodalangili bilan hozirgi kunda ham muhim ma'naviy qadriyat sifatida qimmatlidir. Unda bayon etilgan pedagogik fikrlar hozirgi va keyingi avlodlarni ham tarbiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, ota-bobolarimiz eng qadimgi zamonlardan boshlab yaxshilikni yomonlikka, ma'rifatni jaholatga, nurni zulmatga qarama-qarshi qo'yib, jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida adolat, ezgulik va ma'rifatni ulug'lab kelganlar. Bu qarashlar turkiy xalqlarning ma'naviy tafakkuri va tarbiyaviy dunyoqarashida muhim o'rin egallab, avloddan avlodga o'tib kelgan. "Devoni lug'ot at-turk" asarida

keltirilgan she'rlar, nasihatlar, maqollar va hikmatli so'zlar aynan ana shu qadriyatlarning badiiy va ma'naviy ifodasi bo'lib, kishilar o'rtasida ezgulikni targ'ib etishga, insonni komillikka yetaklashga xizmat qilib kelgan. Asarda ifoda etilgan tarbiyaviy g'oyalar insonni nafaqat bilimli, balki axloqan yetuk shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan. Eng qadimgi yodgorliklarda qadrlangan jasurlik, mardlik, adolat, sadoqat, insoniylik va xushmuomalalik kabi fazilatlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, zamonaviy jamiyatda barkamol avlod tarbiyasining muhim mezonlari hisoblanadi. Ayniqsa, ilmga intilish, halollik, mehnatsevarlik va kamtarlik kabi xislatlarning targ'ib etilishi yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan qaralganda, "Devoni lug'ot at-turk"da ilgari surilgan pedagogik va axloqiy qarashlar hozirgi ta'lim-tarbiya jarayoni bilan hamohang bo'lib, yosh avlodni ma'naviy barkamollik ruhida tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tabiiyki, ushbu fazilatlarni o'zida mujassam eta olgan, ilmi va xushxulq bo'lishga intilgan kishi jamiyatda munosib o'rin egallaydi va haqiqiy inson sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To'xliyev B. (va boshq.) Adabiyot [Matn]. 11-sinf: darslik-majmua. – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 53 b.
2. Madaminjonovna, M. M. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.
3. Muhammaddilyor Diyorbek O'G'Li Uzoqjonov, & Maxliyoxon Madaminjonovna Mirzakarimova (2025). Atrof-muhitni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlash muammolari. Science and Education, 6 (12), 17-21.
4. Mirzakarimova, M. (2025). O 'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIAGNOSTIK TAHLILI. Scientific journal of the Fergana State University, (4), 1-1.
5. Mirzakarimova, M. (2025). Didactic Effectiveness of Teaching General Sciences with an Entrepreneurial Orientation. Journal of Institutional Research South East Asia, 23(3).
6. Uzoqjonov, M. D. O. G. L., & Mirzakarimova, M. M. (2025). Zamonaviy texnologiyalarning atrof-muhitga ta'siri. Science and Education, 6(11), 281-284.
7. El-Atrash, A., Zaki, S., Tousson, E., & Negm, M. (2022). Copper oxide nanoparticles induced liver and kidney toxicity in rat. Asian Journal of Biochemistry, Genetics and Molecular Biology, 12(4), 154-160.
8. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonov, M. D. O. G. L. (2025). Zamonaviy axborot texnologiyalariga o 'tishda axborot xavfsizligi. Science and Education, 6(10), 89-93.

9. МИРЗАКАРИМОВА, М. М. (2022). ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙУНАЛТИРИБ УЎ ИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ.

10. Madaminjonovna, M., & Uzoqjonov, M. (2025). The possibilities of solving environmental problems through technology. *Academic Journal of Science, Technology and Education*, 1(7), 11-15.

11. Uzoqjonov, M., & Mirzakarimova, M. (2025). The role and significance of artificial intelligence in modern society. *Technical Science Integrated Research*, 1(6), 8-10.

12. Mirzakarimova, M., & Uzoqjonov, M. (2025). Information security in information-communication technologies. *Academic Journal of Science, Technology and Education*, 1(6), 8-11.

13. Умнов, Д. Г., Кариев, А. Д., Тешабоев, А. Ю., & Мирзакаримова, М. М. (2024). Формирование финансовой грамотности и культуры потребления у старших дошкольников. *Перспективы науки и образования*, (6 (72)), 420-436.

14. MADAMINJONOVNA, M. X. T. T. Y. (2022). NALTIRIB O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI. *Nova. Pub*, 1-128.

15. Madaminjonovna, M. M. (2024). ECOLOGICAL-VALEOLOGICAL CULTURE IN THE "MAN-NATURE-SOCIETY" SYSTEM. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(5), 51-55.

16. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi. *Science and Education*, 5(3), 264-269.

17. Mirzakarimova, M. M. (2024). O'qituvchining muomala madaniyati. *Science and Education*, 5(4), 278-282.

18. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji. *Science and Education*, 5(2), 224-228.

19. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari. *Science and Education*, 4(12), 321-324.

20. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish. *Science and Education*, 4(11), 78-83.

21. Mirzakarimova, M. (2023). CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATION METOD VA VOSITALAR. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (6), 410-415.

22. Мирзакаримова, М. М. (2020). Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. *Science and Education*, 1(4), 97-103.

23. Мирзакаримова, М. М. (2020). ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY. *INTERNATIONAL*

SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL" INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY, 1(1), 63-65.

24. Mirzakarimova, M. M. (2022). The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes. *Telematique*.-2022.-S, 7128-7131.

25. Мирзакаримова, М. М. (2020). Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. *Science and Education*, 1(4), 216-222.

26. Mirzakarimova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES. *Академические исследования в современной науке*, 2(8), 92-94.

27. Madaminjonovna, M. M. (2023). Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies. *International Journal of Human Computing Studies*, 5(3), 15-17.

28. Маҳмūd Kāshgarī, et al. *Дйвāн Лугāt ат-Турк*. Казахстан, Дайк-Пресс, 2005.

29. Boqijon To'xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova. *Adabiyot. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfī va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent—2018*